



## TARJIMON UCHUN MUVOZANAT: ANIQLIK VA TUSHUNARLILIKNI UYG'UNLASHTIRISH

**Tursunbayeva Shahzoda Nabijon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti, talaba

e-mail: shahzodaen@gmail.com +998917752345

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17864080>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarjima jarayonining zamonaviy rivojlanish bosqichida “aniqlik” va “tushunarlilik” tamoyillarining o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilingan. Muallif tarjima faoliyatini faqat lingvistik hodisa emas, balki madaniy va kognitiv jarayon sifatida yoritadi. Maqolada an‘anaviy filologik yondashuv (aniqlik) va zamonaviy kommunikativ yondashuv (tushunarli bo‘lish) o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, tarjimaning ikki tayanchi — shakl va mazmunning o‘zaro bog‘liqligi, ularning o‘quvchi va muallif o‘rtasidagi madaniy aloqa sifatidagi roli yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** aniqlik, tushunarlilik, filologik tahlil, ekvivalentlik, madaniy kontekst, funksional yondashuv, tarjimon strategiyasi, kognitiv lingvistika.

Globalashuv va raqamli gumanitar fanlar davrida tarjima madaniyatlararo muloqotning asosiy vositasiga aylandi. Tarjima endilikda faqat til o‘zgartirish jarayoni emas, balki madaniyatlarni taqqoslash va ularni bir-biriga yaqinlashtirish mexanizmi sifatida qaraladi. Matn bir til tizimidan boshqasiga o‘tganda, u yangi madaniy vaziyatga moslashadi, shu bilan birga, o‘quvchi idrokida yangicha mazmun kasb etadi. Tarjimashunoslikda aniqlik va tushunarli bo‘lish o‘rtasidagi muvozanatni topish — dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Aniqlik — bu filologik yondashuvning poydevori, ya‘ni terminologik to‘g‘rilik, sintaktik izchillik va janrga sodiqlik; tushunarli bo‘lish esa — matnni yangi o‘quvchiga moslashtirish, madaniy kontekstni yangidan talqin qilish demakdir<sup>1</sup>.

Filologik yondashuvda tarjimaning asosiy vazifasi asl matn shakli va mazmunini imkon qadar to‘liq saqlashdan iborat. Bu yondashuvda terminlar, sintaksis va kompozitsiya elementlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish muhimdir. Aniqlik tamoyili, ayniqsa, huquqiy, ilmiy va o‘quv matnlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga o‘xshash holatlar boshqa terminlarda ham uchraydi. Masalan, “to‘xtatish” so‘zi texnik matnlarda “stop” yoki “pause” tarzida berilishi mumkin, biroq huquqiy hujjatlarda bu atama “termination” yoki “discontinuation” shaklida qo‘llanadi. “Tasdiqlash” iborasi esa rasmiy hujjatlarda

---

<sup>1</sup>Nida E. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: E.J. Brill, 1964.





“approval”, interfeys yoki muloqot kontekstida esa “confirmation” deb tarjima qilinadi<sup>2</sup>.

Bugungi tarjimon nafaqat til bilimiga, balki madaniy kompetensiyaga ham ega bo'lishi kerak. Matn o'quvchi tomonidan to'g'ri idrok etilishi uchun, uni maqsadli auditoriya madaniyatiga moslashtirish talab etiladi.

Tarjima doimiy rivojlanishda bo'lgan madaniy jarayondir. Uning muvaffaqiyati ikki tayanch — aniqlik va tushunarli bo'lish — o'rtasidagi uyg'unlikka bog'liq. Tarjimon nafaqat matnni boshqa tiliga o'giradi, balki madaniyatlar o'rtasida “ko'prik” yaratadi. “Ikkita tayanch” modeli tarjimoni amaliy jarayon sifatida optimallashtiradi, u orqali o'quvchi jonli, muallif esa tushunarli tarzda ifodalanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nida E. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: E.J. Brill, 1964.
2. Catford J.C. *A Linguistic Theory of Translation*. – Oxford University Press, 1965.
3. Vermeer H.-J. *Skopos and Commission in Translational Action*. – In: Chesterman A. (ed.), *Readings in Translation Theory*. – Helsinki, 1989.

---

<sup>2</sup> Catford J.C. *A Linguistic Theory of Translation*. – Oxford University Press, 1965.

